

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:14 (67179)
2018-yil 2-aprel

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

Senga hozir javobim,
Nur taratgan oftobim.

Bayramingni qutlayman,
MENING AZIZ KITOBIM!



Aziz o'quvchilar!

«ONAJONIM TABIAT»

insholar va rasmlar tanloviiga marhamat!



Jonajon yurtimiz tabiat, atrof-muhit, yer va suv resurslarini muhofaza qilish, ekologiyani yaxshilash kabi ezgu ishlarda Siz aziz o'quvchilar faolligini oshirish, ekologik ta'lif-tarbiyani shakllantirish, shu bilan birga, yoshlar qalbida ona tabiatga yanada mehr uyg'otish maqsadida:

O'zbekiston Ekologik harakati, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlarning «Tong yulduzi» gazetasi hamkorligida «Onajonim tabiat» an'anaviy insholar va rasmlar tanlovini o'tkazadi. Tanlov

shartlari quyidagilardan iborat:

1. O'zingiz yashab turgan mahalla, qishloq, tuman, shahar tabiatni, ekologik muammolari hamda ularni bartaraf qilishga doir fikr-muhazalaringiz asosida insho, mavzuga oid chizilgan rasmlar (insholar hajmi 3 qog'ozdan oshmasligi lozim).

2. Siz tahsil olayotgan muktab qoshidagi «Yosh tabiatshunoslar» to'garagi faoliyatini haqida qisqacha ma'lumot.

Qadrli tabiatsevar o'g'il-qizlar! Tanlovda faol ishtiroy etishga shoshiling. Ijodiy ishlaringizni 2018-yilning 15-may sanasiga

qadar quyidagi manzilga yo'llang:

Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30 uy.
Indeks: 100011

e-mail: info@tong yulduzi.uz.

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun telefon, faks: (0-371) 244-63-08

«Onajonim tabiat insholar va rasmlar tanloviiga» deb yozishni hamda siz bilan bog'lanish uchun telefon raqamingizni ko'rsatishni unutmang.

G'oliblar diplom va homiy tashkilotlarning esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

O'zbekiston bo'y lab sayohat unutilmas taassurot, hayrat, maroqli hordiq...

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldag'i «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorini biz o'qituvchilar ham zo'r mammuniyat bilan kutib oldik.

Dam olish kunlarining 5 kun etib belgilanishi esa nur ustiga a'lou nur bo'ldi. Biz o'qituvchilar ana shu imkoniyatdan oqilona foydalanib, 19–21-mart kunlari Andijon – Samarqand – Buxoro yo'nalishida sayohatga chiqdiq. Qishlog'imizdan yo'liga chiqar ekanmiz, farovon va to'kin hayotda yashayotganligimizning sababi yurtimizdag'i tinchlik, xotirjamlik ekanligiga shukronalar aytdik.


Ilk manzilimiz Buxoroning Poyi Kalon Ansambli bo'ldi. Bu yerdagi go'zal va betakror binolarni ko'rgan odam borki, ajodolari mizning aql-u zakovatiga yana bir bor tasannollar aytadi. Labi-hovuz majmuasida V asrga guvoh bo'lgan daraxtlar, purviqor, hashamdar, betakror ranglar jilosida jilvalanayotgan binolarni ko'rib, hayratga tushdik. Har bir qadimi qadamjordan olam-olam taassurotlar, ruhiy quvvat oldik.

Navbatdagi manzilimiz esa go'zal va navqiron Samarqand shahrining Imom al-Buxoriy ziyyaratgohi bo'ldi. So'ng, Go'ri-Amir, Shohi Zinda, Bibixonim, Registon majmularini ziyorat qildik. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning mangu oromgohini uzoqdan ko'riboq, ko'zim yoshlandi. Zinalardan ko'tarilayotib, nogironlar aravasida yaqinlari yordamida yuqoriga ko'tarilayotgan 70-75 yoshlardagi ayol bilan suhbatlashib qoldim. Bilsak, onaxon Farg'onadan kelgan ekan. O'g'li orzusini so'rasa, Islom Karimov

qabri ziyoratiga olib boringlar, debdi. Biz ham o'sha ayol va uning yaqinlari bilan Islom bobo ruhi pokiga tilovat qildik. Safarimiz davomida Namangan, Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm va Sirdaryodan kelgan o'qituvchilarni uchratdik. Ular bilan dildan suhbat qurdik. Ziyoratdan

Hujjatda Vatanimizni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillardan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, fuqarolarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish ko'zda tutilgan. Shu bois, «O'zbekiston bo'y lab sayohat

homiyligida 20 nafar o'quvchi Samarqand, Buxoro shaharlariga olib borildi. Ular qadimi va ko'hna kentlardi Naqshbandiy va uning onalari ziyoratgohi, «Ark» tarixiy majmuasi, Minorai kalon, Labi-hovuz dam olish maskanlari, Samarqanddagi Imom al-Buxoriy, Hazrati Dovud ziyoratgohlarini



qaytar ekanmiz, yurtimizdag'i madaniy boyliklarni qadrlash, kelajak avlodga bus-butunligicha yetkazishimiz kerak ekanligini yana bir bor his etdik.

**Ma'muraxon
MAMATRAHIMOVA,
Andijon viloyati, Xo'jaobod
tumani XTB uslubchisi,
Diloromxon IMINJONOVA,
5-umumta'l'm maktabi
boshlang'ich sınıf o'qituvchisi,
Zulfizarxon MULLABOYEVA,
26-umumta'l'm maktabi
boshlang'ich sınıf o'qituvchisi**

qill!» ichki turizmni rivojlantirish dasturini amalga oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi ham tasdiqlandi.

Qarorga muvofiq maktabimiz o'quvchilarining bo'sh vaqtlarida yurtimizning tarixiy shaharlari bo'y lab sayohatlari tashkil etilmoqda. Yaqinda ota-onalar

zavq-u shavq bilan tomosha qilib, boy taassurotlarga ega bo'lishdi.

**D. ASTANAQULOVA,
Surxondaryo viloyati, Denov
tumanidagi 81-umumta'l'm
maktabining ma'naviy-ma'rifiy
ishlari bo'yicha direktor
o'rinnbosari**

SHU AZIZ VATAN BARCHAMIZNIKI!

O'zbekiston

yoshlar ittifoqining umumiyo'rta
ta'l'm maktablaridagi boshlang'ich tashkilotlari
ittifoqning maqsad-vazifalarini ta'l'm muassasasi miyo-
sida amalga oshiradigan, o'quvchilar va yosh o'qituvchilarni
o'z atrofida birlashtiradigan, ularning manfaatlari va
huquqlarini himoya qiladigan tuzilma hisob-
lanadi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi va uning qoshi-
dagi «Kamalak» bolalar tashkiloti hamkor-
likda sardorlar kengashi a'zolari faoliyatini
qo'llab-quvvatlash, ularda yoshlar bilan ishslash
ko'nikmalari, ijodi, intellektual, yetakchilik
va tashabbuskorlik qobiliyatini rivojlantirish
hamda erishgan yutuqlari va ilg'or tajribalarini

ommalashtirish maqsadida respublika «Eng
namunali maktab sardorlar kengashi» tan-
lovi tashkil etildi. G'ijduvon tuman 8-IDUMI
«Yangi oy» (New moon) maktab jamoasi
bellashuvlarning hududiy bahslarida faol
ishtirot etib, viloyat bosqichiga yo'llanmani
qo'liga kiritdi.

Tanloving ushbu bosqichida ishtirotkchi
jamoalar turli shartlar bo'yicha o'zaro bel-
lashdi. Yuqori ball to'plab, ustozlari bergan
bilimlarni munosib himoya qilgan «Yangi
oy» jamoasi mutlaq g'olib bo'lib, tanloving
respublika bosqichiga yo'llanmani qo'iga
kiritdi.

FAOL SARDORLAR



Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 5-umumta'l'm
maktabining 9-sinf o'quvchilaridan Yodgor Musurmonov, Xumora
Boqiyeva, Husniya Musurmonova va Muslima Mirahmedova eng
faol sinf sardorlari Kengashi a'zolari sanaladi.

YOSHLAR ITTIFOQI PARTASI

Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan
O'zbekiston yoshlar ittifoqi o'z oldiga yuksak
maqsadlarni qo'ygan.

Jumladan, uyushmagan yoshlar bilan ishlash tashkilotining
assosiy vazifalaridan biridir.

Yaqinda yurtimizdag'i barcha umumta'l'm maktablarida
Yoshlar ittifoqi partasi tashkil etildi. Bu partani tashkil etishdan
assosiy maqsad, uyushmagan yoshlarning bilim salohiyatini
oshirishdan iborat. Partada bir nafar a'llochi va bir nafar fan-
larni o'zlashtirishga qiynalayotgan o'quvchi o'tiradi. Bu orqali
sinfidagi bilimi orqada qolayotgan bolalarning tengdoshlariga
tenglashib olishi ta'minlanadi.

Nafisa QURBONOVA,
Toshkent viloyati, Piskent tumanidagi
17-umumta'l'm maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

MO'YQALAM SEHRI

Namangan shahridagi 82-umumta'l'm
maktabining yosh rassomlari turli mavzularda
mahorat bilan rasmlar chizib, tengdoshlari
havasini orttirmoqda.



Namangan shahridagi 82-umumta'l'm
maktabining 6-«V» sinf o'quvchilarining
rang tasvir ishlardan namunalar.

zavq beradi. Bolalarning ijod namunalarida jamiyat hayotiga
rahna solayotgan illatlar o'ziga xos tarzda tasvirlanadi. Ayniqsa,
o'quvchilarining «Hayot kushandas», «Qora changal»,
«Yashash z a v q i »
mavzularidagi chiz-
gan rasmlari
shahar ham-
da viloyat
miqyosida
o'tkazila-
yotgan turli
tanlovlarida
yuqori ba-
holanmoq-
da. Ayniqsa,
to'garakning
faol a'zolari-
dan Xayriniso Mirxanova, Mohinur Ibrohimova, Mahmudjon
kabilarning ishlari e'tirofga munosib. Ular Namangan viloyati
miqyosida tashkillangan «Giyohvandlikqa qarshi kurash»
oyligida o'z rasmlari bilan ishtirot etib, sovrindorlar qatoridan
joy egalladi.

Ayni paytda to'garak a'zolari bahor ayyomiga
bag'ishlab turli mavzulardagi kompozitsiyalar, rasmlar
ishlash harakatida. Biz ularning ijodiy ishlari parvozlar tilaymiz.

Maktabning «Yosh qalamkashlar» to'garagida
30 nafardan ziyyod iste'dodli yosh musavvir mashg'ulotlarni
ustozi Shahnoza Kamolidinova boshchiligidagi olib
bormoqda. Ular tomonidan chizilgan
rasmlar kishiga



OILA DAVRASIDA
O'QING

OTA-ONANGIZ BIR KUNDA SIZGA QANCHА VAQT AJRATADI?




*Kechagidek esimda,
bolaligimda onam bilan uzoq
suhbat qurardik. Garchi dugonala-
rim ko'p bo'lsa-da, eng yaqin sirdoshim,
maslahatgo'yim onam edi. Otam esa hamisha
mening orzularim, rejalarim haqida qiziqardi.
9-sinfda o'qiyotganimda birinchi hikoyam «Tong
yulduzi» gazetasida chop etilgan. O'shanda
otam gazetani sinchiklab o'qib chiqqach, meni
duo qilgandi. Shu fursatda ota-onanga
ularning e'tibori-yu mehridan chek-
siz minnatdor ekanligimni
aytmoqchiman.*

Abdurahmon BEK-
MIRZAYEV, Farg'on'a viloyati,
Quva tumanidagi 4-umum-
ta'l'm maktabining 3-sinf
o'quvchisi:

– Biz buva va buvimalar bilan birga yashaymiz. Shuning uchun men savollarimga goh buvam,
goh onamdan, ba'zan esa aka-opamdan javob olaman.

Olada kenja farzand bo'lganim
bois, menga e'tibor beradigan yaqinlarim ko'p. Ammo, baribir ayam bilan
dars tayyorlashni yaxshi ko'raman.

Dadam ham meni juda yaxshi ko'radi.
Ularni doim yonimizda bo'lishlarini
istayman. Yon qo'shnimiz Akmalning
dadasi xorija ishlashga ketganida,
u rosa xafa bo'lgandi. Do'stimning
qiyonalayotganini ko'rib, dadamni quch-
gancha «Hech qachon, hech qayerga



*– Onam ko'p vaqtini menga ajratadi, – deydi quvonch
bilan poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 59-DIUM-
ning 3-«F» sinf o'quvchisi Madina TURSUNBOYEVA.*

ketmaysiz-a, men sizni juda yaxshi
ko'raman», dedim. Ular ham meni
bag'riga bosganida, mehr-u e'tiboridan
yayrab ketdim.

*Aziz o'quvchim! Bu mavzu yu-
zasidan sizda qanday fikr-muloha-
zalar bor? Ota-onangizga dilingizdag'i
qaysi gaplariningizni yetkazishni
istardingiz. Bu haqda bizga, albatta,
yozib yuboring.*

Sayyora QODIROVA

Iste'dod - o'zingga, o'z
kuchingga bo'lgan ishonchingda.

M. GORKIY

TABIAT MO'JIZALARI

Turkiston tizma tog'larini bir-biri bilan bog'lab
turuvchi Zomin tumanining Supa devonidan doimo
salqin shamil esib turadi.

Pastlab suzayotgan bulutlar tarqalib, moviy osmon ko'zga tashlanadi. Yashillikka burkungan do'lana, bodom, yong'oq va tog'lolalari g'oyat go'zal manzara hosil qilgan. Xuddi musavvir chiz-gan suratdek har qanday tabiat oshuftasini o'ziga rom etadi.

Biz G'allaorol tumanidagi 16-umumta'lum maktabi o'quvchilari bilan yuqorida ko'tarilganimiz sayin archazorlar quyuqlashib borardi. Havoda qanot qoqmasdan suzib yurgan yirik qushlar ko'zga tashlanadi. Burgutlar ov vaqtin o'tkir ko'zlariga tayanadi. Turnalar tovushlar orqali aloqa qiladi.

Bahor elchisi – boychechak endi bo'y ko'satmoqda. U o'n-o'n ikki kun gullab turadi. Keyin chinnigul, nilufar va binafsha gullari ochildi. Ular asalarilarni nektar bilan ta'minlaydi.

Zomin tabiat boy va xilma-xil. Bir necha kun avval yoqqan yomg'irdan so'ng tevarak-atrof yanada ko'rkmashib, maysalar avj olib o'sa boshlagan. Pastda

esa toshdan toshga bosh urib, O'rikisoydan oqib o'tuvchi tezoqar anhor suvi shovullaydi. Bu ko'l va muz suvlaridan paydo bo'lgan. Uning hayotbaxsh suvlaridan bar-chi bahramand.

Yurtimizga janubdan uchib kel-gan qushlar sayrog'i bir dam ham to'xtamaydi. Sohilga yaqin joyda qorayaloq, qirg'ovul, loyxo'rak kabi qushlar hozir-u nozir. Kakku, kaklik va bulbullar xonishi tog'-u tosh usra taraladi. Qushlar mayda ozuqlarini topib yeydi.

Biz sayohatimiz davomida Peshog'or va Teshiktosh g'orlariga ham duch keldik. Qirqqiz, qizketgan, uch opa-singil qoyalari haqida mahalliy aholidayan turli rivoyatlarni bilib oldik. Qisqasi, tabiatning boy va xilma-xilligi hamda uning g'aroyib mo'jizalaridan beixtiyor lol qolasiz. U joylarni kezgan kishi necha ming yillik tarixni varaqlagandek bo'ladi.

Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati

ORZUBEKNING ORZUSI BISYOR

Tug'ilishdanoq parvozga shay bo'lish eng oliy baxtdir.
ARISTOFAN



Jizzax viloyati, Mirzacho'l tumanidagi 8-umumta'lum maktabining 1-«A» sinf o'quvchisi Orzubek Jasurov iqtidorli o'quvchilardan. Uning qanday qobiliyat egasi ekanligiga qiziqayapsizmi? U 100 gacha bo'lgan sonlarning qo'shish va ayirish amallarini bir zumda og'zaki tarzda ayta oladi. Bundan tashqari, kitob o'qishni yaxshi ko'radi. Shu bois bo'lsa kerak, she'rlarni bir o'qishda yodlab oladi.

Orzubek jamoat ishlariha ham faol. U sinf sardori, «Kamalak» bolalar tashkiloti yetakchisi. A'lo baholarga o'qyidigan Orzubekning rasmlarga qarab yozgan hikoyalarini nafaqat sindoshlari, balki singlisi E'zoza ham berilib tinglaydi.

– Orzubekning faol bo'lishida ota-onaning farzandi tarbiyasiga e'tibori, oila – maktab hamkorligi alohida o'r'in tutadi, – deydi sinf rahbari Gulnora Xalilova. – Unga sinfda barcha havas qiladi. Ya-qinda u O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan o'tkazilgan «Shu aziz Vatan barchamiznik!» deb nomlangan tadbirda dasasining «Sardor bo'laman» nomli she'rini yoddan aytganda, ko'pchilik uning xotirasiga qoyil goldi. Shuningdek, Prezidentimizning kitobxonlikni targ'ib qilish borasidagi aytgan fikrlaridan yanada ruhlanib, kitob o'qishga, bu yaxshi odatni sindoshlari orasida targ'ib qilishga astoydil harakat qilyapti. Qolaversa, Shiroq, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Sharof Rashidov, Islom Karimov kabi buyuk sarkarda-yu davlat arboblarining hayoti va faoliyatiga juda qiziqadi. Shu bois, jahon va O'zbekiston tarixini puxta o'rganyapti.

Bu iqtidor egasining ertangi kungi maqsadlari aniq. U do'stlik, tinchlik hukm surayotgan baxtiyor Vatanda harbiy bo'lib, yurtini ko'z qorachig'iday asrashni istaydi. Biz Orzubekning orzulari ushalishiga tilakdoshmiz.

Nodira NAZAROVA

Dilafro'z
Qudratova Naman-gan viloyati, Pop tumanidagi 7-bolalar musiqa va san'at maktabining fortepiano sinfida tahsil oladi.

ISTE'DODLI YOSHLAR SARDORI

Bolaligidan san'atga mehr qo'yan qizaloq hozirda mashhur bastakor-larning musiqalarini ham maromiga yetkazib ijro eta oladi. 67-umumta'lum maktabining 8-sinfida ta'lim olayotgan o'quvchi tengdoshlari orasida o'zining odobi, namunali xulqi, jamoat ishlariagi faoliigi bilan ajralib turadi. Ta'lim maskanining yoshlar ittifoqida u «Iste'dodli yoshlar» bo'limi sardori sifatida faoliyat yuritadi. Dilafro'z nafaqat sozanda, balki jarangli ovozi bilan qo'shiq ham kuylaydi.

– Qizimdag'i san'atga ishtiyoqni u to'rt-besh yoshidayoq sezganman. Doimo oila davrasida ashula aytib berar, oynayi jahon orqali yaxshi qo'shiq namoyish etilsa, darrov raqsga tushib ketardi. Keyinchalik qizimini musiqa maktabiga olib bordik. Natija chakki bo'lmadi, – deydi onasi Yulduz opa. – Shu kungacha ustoz Farida Shodmonxo'jayeva ko'magi bilan «Kamalak» yulduzlar» bolalar ijodiyoti festivali va Zulfiyaxonim tavalludining 100 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan «Zamonamiz kuychisi» respublika ko'rik-tanlovida 1-o'ringa sazovor bo'ldi.

– Qo'shiq aytish jon-u dilim, – deydi Dilafro'z. – Musiqa maktabini yakunlab, kelajakda san'at olyighida o'qishni davom ettirmoqchiman. Ustoz san'atkorlar singari ozod va obod yurtim – O'zbekiston madhini katta sahnalarda baralla kuylamoqchiman.

Namangan bag'rida yana bir iste'dod g'unchasi yuz ochmoqda. Ulikan maqsadlarni ko'zlagan yosh san'at shaydosining orzulari ro'yogba chiqishiga ishonamiz.

Nozima JAVHAROVA

Ko'klam
o'zgacha
fasl. Ayniq-
sa, bolalarining
varraklar ortidan
yugurayotganini
ko'rib, beixtiyor
ularga qo'shib
zavqlanasiz.

SAMOGA UCH, KO'KLARNI UCH, VARRAGIM!

Osmonlarga bo'ylab, bulutlarni quchishga shaylangan varraklar esa kishida g'ayrat va shijoat uyg'otadi.

Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, «Barkamol avlod» respublika bolalar texnik ijodiyot marmazi hamda boshqa qator tashkilotlar hamkorligida poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 275-umumta'lum maktabida militsiya mayorlari Islom Sat-torov xotirasiga bag'ishlab «Varraklar sayli» bo'lib o'tdi.

Tadbirda so'z organ Zoya opa Sattorova bugungi yoshlar uchun yaratilgan sharoitlar haqida alohida to'xtalib, kelajak ularning qo'lida ekanligini, buning uchun esa a'lo o'qish va hunar o'rganish zarurligini ta'kidladi. Shundan so'ng, o'quvchilar olib kel-gan varraklarini asta-sekin osmonga uchira boshladи. Tadbir tashkilotchilari esa varrak uchirayotgan ishtirokchi o'quvchilarning qay birini g'olib deb e'lon qilishga shoshib qoldi.

«Varraklar sayli»dan Ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi maxsus maktab-internati o'quvchilari ham olam-olam zavq oldi. Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 200-umumta'lum maktabining 6-sinf o'quvchisi Muhammadziyod Jalolov yasagan varrak esa boshqa o'quvchi-lamikidan balandroq uchdi. Shuning uchun u g'oliblar qatoridan joy oldi. Mazkur tumanda joylashgan 114-umumta'lum maktabining 8-sinf o'quvchilari ikrom Ilhomov va Ibrohim Shorahimovlarning varragi ham Muhammadziyodnikidan qolishmadidi. Agar bu musobaqani o'z ko'zingiz bilan ko'rganingizda, osmon-dagi jonli kamalakni qanday tovlandishini maroq bilan tomosha qilgan bo'lardingiz.

Tadbir so'ngida g'olib o'quvchilar hamkor tashkilotlarning esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi va bir ovozdan: «Tinch va musaffo osmonimizda rangin varraklar parvoz qilaversin!» dedi.

Ozoda TURSUNBOYEVA



INGLIZ TILI BILIMDONLARI



Bahor fasli har bir inson uchun g'ala-ba va yutuqlar olib kelmoqda. Ayniqsa, bolajonlar bu fasldan olam-olam zavq oldilar.

Yaqinda Qoraqalpog'iston bolalari va o'smirlarining sevimli nashri «Jetkinshik» gazetasida «Young polyglot's creation – 2017» tanloving yakuniy taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Dastavval, gazeta Bosh muharriqi Abdulla Embergenov, mas'ul kotib Darixa Ubbiniyazova hamda ingliz tilidagi sahifalar uchun mas'ul xodim Begis Sultamuratovlar so'zga chiqib, o'quvchilar tomonidan kelayotgan ingliz tilidagi maktublar soni ko'pligi, bolalarning ingliz tilida bema'lol maqola, she'r va hikoyalari yoza olishlarini e'tirof etib, ayrim maktublardagi xato va kamchiliklar haqida ham so'zlab yuritdi.

So'ng, 2017-yil davomida gazetada e'lon qilingan ingliz tilidagi eng yaxshi maqola, she'r hamda hikoya mualliflariga faxriy yorliq va esdalik sovg'alarini topshirildi.

Odilbek LATIPOV,

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Taxiatosh tumani

Magical hands (Sehrli qo'llar)

Read the text and open the brackets with English translation.




The (ustoz) appointed Nargiza as a flower girl who had to look after flowers in the garden. The girl took care of (gullar), watered them. The flowers began growing quickly.

(Bir kuni) Nargiza didn't come to school, she was ill. Teacher (so'radi) Gulrukh to do flowering instead of Nargiza. (Lekin) Gulrukh didn't do that. Nargiza got well soon and (qaytdi) to school. The flowers waited for her and spoke: «Have you got better? (Biz) missed you so much, water us, (iltimos)».

Nargiza asked who looked after for the flowers. «I did» (javob berdi) Gulrukh. Nargiza got acquainted with Gulrukh. She called Gulrukh to the garden and taught her how to flowering them. Gulrukh was very happy as the flowers were.

Translated by Dilayora ODILOVA,
the pupil of the school №43 in Gijduvan district Bukhara region




COMPLETE THESE CHARTS

Holiday	Date	We say
New Year	on January 1	The first of January
International Women's Day	on March 8	
Navruz	on May 9	The nineth of May
		The first of October
		The first of September

Subhidam SAYFULLAYEVA

WHO IS LEARNED?



1. In - Out

2. Night -

3. Tidy -...

4. Sad -...

5. Quiet -...

6. Slow -...

7. Young man-old man

8. Short day -...

9. Comfortable house -...

10. Ugly duck -...

11. Thin girl -...

Dinora ABDULLAJONOVA

Painter: Yaqubbek HALIMBEKOV

APRIL IDIOMS

Beam	To smile radiantly
Grin	To smile widely
Sheer	To smile at someone with an expression on his face that shows a lack of respect
Smirk	To smile in a smug

Read the April idioms and full fill the gaps.

- I am so happy that my brother will visit me. I cannot stop **grinning**.
- When we are together with my cousin we are always ...
- He ... at me when I lost and he won first place.
- The pupils ... at Bobur for not having final test .

Ma'mura G'ULOMOVA

MY HOUSE

YOU CAN FIND 18 WORDS RELATED HOUSE



D	B	A	T	H	R	O	O	M	T	T	L	E	P	O	R	F	I	D	G	E
O	B	E	D	R	C	H	E	N	R	E	C	A	R	R	R	O	R	I	D	E
O	K	I	T	C	A	T	V	M	S	T	C	A	P	O	T	O	R	F	R	O
R	T	R	C	I	R	V	S	E	R	C	R	R	E	E	T	E	R	I	R	E
W	A	E	C	R	V	S	E	R	R	C	R	R	E	O	T	E	R	F	R	E
W	B	E	C	O	R	T	S	E	R	C	R	R	E	O	T	E	R	I	R	E
I	S	T	O	C	O	O	V	E	R	C	R	R	E	O	T	E	R	I	R	E
N	O	T	C	L	O	C	R	M	R	C	R	R	E	O	T	E	R	I	R	E
D	O	O	C	L	O	C	R	M	R	C	R	R	E	O	T	E	R	I	R	E
O	F	O	O	K	L	R	A	M	R	C	R	R	E	O	T	E	R	I	R	E
W	A	L	A	L	A	A	A	A	A	A	A	A	A	A	A	A	A	A	A	A

Painter: Sumbula MELIMURODOVA

Ixlosbek IBRAGIMOV,
the pupil of the school №1 in Qo'shko'pir district Kharezm region

KAPALAK

Kapalakjon, kapalak,
Qanoting misli ipak.
Guldan gulga qo'nasan,
Gullarni xush ko'rasan.



Go'yo sen ham bog'bondek,
Gulzorni kashf etasan.
Qanotlarin silkitib,
Olislarga ketasan.

Kel, birga do'st bo'laylik,
O'ynab shodon kulaylik.
Dilga quvchon bag'ishlab,
Bog'da o'ynab kelaylik.

Go'zal HAYDAROVA,
Toshkent viloyati, Parkent
tumanidagi 45-umumta'l'm
maktabining 9-sinf o'quvchisi



VAQT QADRI

Qodir Sardorga dedi:
– Qalaming kerak edi.
Berib tursang-chi bugun,
Qaytaraman kechqurun.

– Mana, qalamlarim ol,
Va yonimda biroz qol.
Dedi Sardor shart qo'yib,
Qoshi-qovog'in uyub.

– Qololmayman, ishim bor,
Vaqtim ketmasin bekor.
Qodir o'rnidan turdi,
Vaqtning qadrini bildi.

Borjon ILYOSOV,
Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi
204-umumta'l'm maktabining 4-«G» sinf
o'quvchisi

ANOR

Savatda turar anor,
Anorni yedi Abror,
Salgina ekan nordon,
Qaytarib otdi shu on.



TARUVUZ

Polizda yotar semiz,
Ustida bor chizig'i.
So'ygandan so'ng bilinar,
Qizargani, qizig'i.

KULCHA

Zumrad pishirdi kulcha,
Shirin ekan u buncha.
Anvar kulchani yedi,
Zumradga rahmat dedi.

TULKI

Juda mug'ombir tulki,
Ayyorligi xo'p kulgi.
Sabzirang kiyimchasi,
Parrandalar o'ljasni.

Gulruh PANJIYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Qamashi
tumanidagi 12-umumta'l'm
maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi

«NABIRAMGA MAKTBULAR» TURKUMIDAN

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Hayot deganlari shundayki, mening aziz nabiram,
u judayam nozik va nafis. Go'yoki salgina imo-yu
ishoraldan iboratdek.

Bir kuni maktabdan uya hayajon bilan kirib
kelding. O'qituvching seni sinfboshi qilmoqchi
bo'pti. Eshitib xursand bo'ldim.

– ... qiyin-da, doda, – deding ikkilanib, – sinfda
shunaqangi bolalar borki... qo'rqaman... o'qituv
chimdan o'yab ko'rishga ruxsat so'radim.

Agarda u ayt-
gancha
bo'lgan-
da, jamao
i k k i g a
bo'linib
qolardi.
Men un-
day qil-
madim.
O'zimni

Erkin MALIK,
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan jurnalist



YAXSHIGA BIR ISHORA

Bolajonim, men bekorga «ishora» haqida so'z
ochmadim. Shu topshiriq o'qituvchingni ko'ngliga
kelibdim, uni hayot deb atalgan xilqatning bir ishorasi
deb bil. Senda ko'pga bosh bo'lish qobiliyati borki,
o'qituvching seni tanlagan. Xalqimizda yaxshiga
bir ishora, yomonga ming qamchi degan gap bor.
Buni o'zing uchun topshiriq deb bil va uni bajarish-
ga shaylan. Ikkilansang, mas'uliyatdan
dochgan bo'lasan. Unda hayot degan mo'jiza sendan
yuz o'giradi. Oqibatda sendagi iqtidor shamdeklar
o'chib qoladi. Harakat qilsang, hayotning o'zi seni
qo'llab-quvvatlaydi. Ishing oldinga bosaveradi.

Bir yili menga ham kattagini jamoaga boshchilik
qilishni topshirishdi. Jamoaki, u yerda ham sen
aytgan «shunaqangi»lar bor edi. Ulardan biri jamoa
orasida meni chaparatasisiga olib, orqamidan so'kibdi.
Buni o'sha xodimning o'tog'i menga kirib chaqqi. U
yangi rahbar hozir to'polonni boshlaydi, deb o'yadi.

eshitmaganga oldim. Anovi xodim bilan oldingidan
ham yaxshi muomalada bo'la boshladim. Nihoyat,
u bir kuni oldimga krib: shunday-shunday bo'lgan
edi, meni kechiring, dedi. Menunga kulib, kim-
larning oldida nima degan bo'lsangiz, kechirimni
o'shalardan so'rang, dedim.

Sen ham jamoangdag'i ba'zi narsalarni ko'rib
ko'rmaslikka, eshitib eshitmaslikka ol. Ammo
kamchiliklarni, o'zaro munosabatlarni zimdon
o'nglashning payidan bo'l. Buning uchun do'stlash
va mehr-oqibat ko'rsat. Do'stman deganga hech
kim dushmanlik qilmaydi. Mehriga hech qachon
qahr bo'limgan. Yana shuni bilginki, ko'pga bosh
bo'lish ham bolalikdan, maktab partalaridan bosh-
lanadi, mening yetakchi bolam.

(Davomi bor)

BAHOR KELGANDA...

Bahor keldi bog'larga,
Hatto baland tog'larga.
Quyosh nurlari tushdi,
Haydab yubordik qishni.

Qir-adirda lolalar,
Misli quvnoq bolalar.
Chor-atrofni gilamdek,
Bezab ko'ngilni olar...

Biz ham shunday chog'larda,
Sayr etamiz bog'larda.
Ko'k sari uchar varrak,
Buvim qilar sumalak.

Muxlisa QO'CHQORBOYEVA,
Samarqand viloyati, Payariq
tumanidagi 97-umumta'l'm
maktabining 4-«B» sinf o'quvchisi

TINCH GO'SHAM

Oy, quyosh nur sochar osmonlaringga,
Ta'riflar sig'maydi dostonlaringga.
Ta'zim qo'riqlagan posbonlaringga,
Ko'nglimming parchasi, tinch go'sham Vatan!

Momolaring qo'li mudom duoda,
Qizlarning ibosi tengsiz hayoda.
Sendayin Vatan bor yana qay yerdar?
Yulduzlarim ichra Zuhromsan, Vatan!

Bobolardan qolgan bir ulug' hikmat,
Xalqqa xizmat qilsang toparsan izzat.
Bizni ulg'aytirgan tuproqqa rahmat,
Mening uchun eng aziz go'shamsan, Vatan!

Barchaning yuzida baxtning ziyozi,
Zaminda jaranglar tinchlik sadosi.
Vatanim, ta'rifing yo'qdir adosi,
Buyuksan, suyuksan, onamsan, Vatan!

Asila OLIMJONOVA,
Farg'on'a viloyati, Besharig tumanidagi
40-umumta'l'm maktabining 6-«A» sinf
o'quvchisi

Bir bor ekan, bir yo'q ekan.
Qishloq chetida katta o'mon bor
ekan. Kunlaming birida qo'zichoq
o'tlab yurib, onasini yo'qotib
qo'yibdi. U yaqin-uzoq qidiribdi,
lekin topolmay, rosa ko'z yosh
qilibdi. Uning ovozini eshitigan
bo'ri qo'zichoqning oldiga kelibdi.
Qo'zichoq qo'rqaqidan battarroq
yig'labdi. Shunda bo'ri:

– Hoy, yig'lama, men senga
tegmayman, aksincha, yordam
beraman, – debedi.

– Sen axir
bo'risan-ku, meni



MEHR

(Ertak)

yeb qo'yishingdan
qo'ryapman, –
debedi qo'zichoq ovozi
qalitrab.

– Seni nimangni yeyman,
qoqsuyak bo'lsang. Qolaversa,
bugun yaxshilik qilmoqchiman.
Zora qilgan yaxshiligidan men
ham yo'qotib qo'yanan bolamni
topsam, – debedi bo'ri.

– Nima, sen ham bolangi
ni yo'qotdingmi? – so'rabdi
qo'zichoq.

Bo'ri og'ir xo'rsinib, shunday
debedi:

– Ha, bechora bolam hozir
qayerlarda ekan? Har kuni uni
sog'inib yig'layman. Seni onang
ham xuddi menga o'xshab yig'lab
yurgandir, yur, ularni topaylik.

Qo'zichoq unga ilosiz er-
gashibdi. Bir-biriga rahmi kelgan
ikki hamroh o'monni uzoq ay-

lanibdi. Nihoyat, bir joyda ona
qo'yning ma'raganini eshitib,
o'sha tarafga yugurishibdi. Ona
qo'y ularni ko'rib, qo'qib ketibdi.
Shunda qo'zichoq, «Oyijon, bu
bo'ri bizga yaxshilik qilmoqchi, yo-
mon niyat yo'q, xavotirliamang»,
debedi. Ona qo'y tinchanib, ularga,
«Bu yoqqa kelenglar», deya im-
labdi. Bo'ri va qo'zichoq yugurib
borsa, bir chuqurlikda nimadir
ingrab yotgan emish. Ona qo'y
bo'riga qarab:

– Balki bu
bo'rivachcha



senga tanishdir?! – debedi. Bo'ri
qarasa, chuqurlikda yotgan o'z
bolasi ekan. Ular uchovlashib
bo'ri bolasini chuqurlikdan tortib
olishibdi. Bir-birlari bilan topishib
olgan ona-bolalar rosa xursand
bo'lishibdi. Shunda ona bo'ri:

– Qara, senga yaxshilik qila-
man, deb aslida o'zimga yaxshilik
qilgan ekanman, – debedi.

Ha, mehnning kuchi shunaqa,
hatto yirtiqchilarning ko'nglini
ham yumshatadi. Rahmat senga
yaxshilik, rahmat sizga yaxshilar.

Madina UMRZOQOVA,
Toshkent shahar, Yakkasaroy
tumanidagi 91-umumta'l'm
maktabining 7-«V» sinf
o'quvchisi



TAYYORGARLIK AVJIDA

Xaba-

ringiz bor, joriy yil

Xitoya futbol bo'yicha yoshlar o'rtaida o'tkazilgan Osiyo championati umidli charmto'p ustalarimiz uzoq kutilgan championlikni qo'lga kiritib, o'zbek futboli muxlislariga bir olam quvonch ulashgan edi.



Haydarov shogirdlari Farg'onadagi qarama-qarshilikda ancha mazmuni to'p surdi. «Istiqlol» stadionida kechgan murosasiz bahsning asosiy vaqtida hisob ochilmadi. Nihoyat uchrashuvning 97-daqiqasida mohir himoyachimiz Doston Tursunov raqib darvozasini ishg'ol qilib, termajamoamizning 1:0 hisobidagi g'alabasini ta'minladi.

Ayni paytda Ravshan Haydarov boshchiligidagi termajamoalari oldindagi nufuzli musobaqa — Osiyo o'yinlariga jiddiy hozirlik ko'moqda. O'FA tomonidan futbolchilarimizga munosib raqiblar tashanli, o'toqlik uchrashuvlari tashkil etilmoqda.

Yaqinda Andijon va Farg'onsha shaharlarida O'zbekiston va Keniya yoshlar termajamoalari o'rtaida ikkita o'toqlik uchrashuvi tashkil etildi. Andijondagi ilk bahsda raqiblarimiz vakillarimizga qaraganda ancha ishonchli o'yin o'tkazib, yakunda 2:1 hisobidagi g'alabani tantana qildi. Ushbu o'yindan to'g'ri xulosa chiqargan Ravshan

xulosa chiqargan Ravshan

Boylikning avvali - sog'lik.

Boks bo'yicha qanday xalqaro musobaqa o'tkazilmasin, o'zbek charmqa'lqop ustalarini doimo g'oliblar safida e'tirof etiladi.

Vakillarimizning murosasiz janglarini dunyo boks ixlosmandlari katta qiziqish bilan tomosha qiladi.

BOKSCHILARGA ISHONAMIZ



Joriy yil 19–28-aprel kunlari Tailanding Bangkok shahrida 2000–2001-yillarda tug'ilgan yoshlar o'rtaida boks bo'yicha Osiyo championati bo'lib o'tadi.

So'nggi ma'lumotlarga qaraganda, Osiyo boks konfederatsiyasi tomonidan tashkil etiladigan qit'a championatida o'ttizdan ziyod mamlakatdan 200 nafardon ortiq sportchi o'z omadini sinovdan o'tkazadi. Quvonarlisi, turnirda yurtimiz bokschilari ham to'liq tarkib bilan ishtirot etishi rejalashtirilgan. Tarkibdan esa Halimbek Utogenov, Jahongir Rahmonov, Navo Tamazov, Jamshid Xudoyberganov kabi bir necha xalqaro musobaqalar g'oliblari o'rinni o'rgan. Shuningdek, qizlar o'rtafigi bahislarda Xursandoy Xolmatova, Maf'tuna Fayzullayeva, Nasiba Xayrullayeva kabi yosh iqtidor egalari ona Vatan sharafini himoya qiladi.

Ayni kunlarda atletlarimiz tayyorgarlikka zo'r bergan. Biz esa bokschilarimizga nufuzli musobaqada yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarishlarini tilaymiz.

Sa'dullo TURSINOV

*Sport – go'zallik, yoshlik va navqironlik ramzi.
U bilan shug'ullangan insонning nafaqat tани,
balki ma'naviy olами, ruhiyatи ham sog'lom
bo'ladi.*

«MAHORAT MAKTABLE»DA...

Buxoro viloyati, Romitan tumani idagi 35-umumta'lim maktabida ham bu boroda amalga oshirilayotgan ishlar tahsinga loyiq. Quvonarlisi, ushbu ta'lim maskani tumanda «Mahorat maktabi» sifatida e'tirof etiladi. Yaqinda maktabda «Jismoniy tarbiya darslarida sindan tashqari mashg'ulotlari tashkil etish ish tajribasidan» mavzusida amaliy seminar tashkil etildi.

Tadbir kuni o'quvchilarning sport sohasida qo'lga kirtgan «Yutuqlar burchagi» tashkil etildi, maktab hayotiga oid slaydlar tayyorlandi. Seminar ishtirokchilari esa muassasada tashkil etilgan to'garaklar ishi bilan yaqindan tanishdi. Mehmonlarga, ayniqsa, D. Hamidovaning shaxmat, Sh. Shodiveyaning shashka, B. Fayzullayevning voleybol to'garaklari faoliyati ma'qul bo'ldi. Tadbir davomida tashkillashtirilgan «Keling, bellashaylik!» viktorina o'yini kechaga o'zgacha shukuh bag'ishladi. Ayniqsa, «Sport va bizning imkoniyatlarimiz», «Onlayn tizimidagi testlarni bajarish», «Jahonga yuz tutgan sportchilarimiz» kabi chiqishlar yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Tadbir tashkilotchisi, jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi B. Fayzullayevning ish tajribasi yuksak baholanib, viloyat miqyosida ommalashtiriladigan bo'ldi.

Muhammadsodiq ALIMOV

NAVRO'Z MARAFONI – 2018

«Navro'z» umumxalq bayrami munosabati bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri markaziy ko'chalarida «Sport xalqning o'ziga ishonchini oshiruvchi, jipslashtiruvchi jabhadir, uning o'zi emas, albatta, undagi g'alabalar millatni g'ururlantiradi» shiori ostida yoshlarning «Navro'z marafoni – 2018» musobaqalari o'tkazildi.



Maxsus tashkil etilgan www.marafon.yi.uz veb-sayti orqali marafonda ishtirot etish istagini bildirgan 5,2 mingdan ortiq yoshlar onlayn ro'yxatdan o'tdi.

Bellashuvlarda 16–30 yosh toifasidagi uyushmagan yoshlar, ta'lim muassasalarini o'quvchi-talabalari, imkoniyati cheklangan bolalar hamda huquqni muhozafa qiluvchi organ xodimlari va harbiy qismlardagi yoshlar ishtirot etdi.

Mazkur ommaviy musobaqada O'zbekistondagi 4 ta elchixonada 2 ta xalqaro tashkilot xodimlari ham oila a'zolari bilan birga qatnashdi.

Yakunda 1-, 2- va 3-o'rinni egallagan g'olib ishtirotchilar medal, diplom va esdalik sovg'alarini bilan taqdirdi.

Nurbek QIDIRALIYEV



1-APREL – XALQARO QUSHLAR KUNI

QUSHLARGA

Qushlar, hoy qushchalar,
Balandlarga uchasisiz.
Ko'ngillar xushnud bo'lsin,
Ko'k bag'rini quchasiz.

Siz tabiat bezagi,
Go'zallikka hamohang.
Dillarni maftun etar,
Sayrashingiz zo'r ohang.

Behruz XOLBO'TAYEV,
Qashqadaryo viloyati,
Chirochi tumanidagi
13-umumta'l'm maktabining
6-sinf o'quvchisi



LAYLAK

Eshitilar sas lak-lak,
Uchib kelibdi laylak.

Beozor qushdir bular,
Tinchlik elchisi ular.



Chumchuq

Hech sog'inmas yomonlik,
Xalqqa tilar omonlik.

Hozirgi tinch zamonda,
Keng musaffo osmonda.

Parvoz etg'in xotirjam,
Tinch oila jamuljam.

Eshitilar sas lak-lak,
Uchib kelibdi laylak.

Azamat SUYUNOV

Sodiqjon
SAYDALIYEV,
Toshkent viloyati,
Ohangaron
tumanidagi
1-umumta'l'm
maktabining
2-«G» sind
o'quvchisi



BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

Shaki markazi tomon yoylar bo'yicha:

- Fantastik asarlar muallifi Hojiakbar ...
- Xalq latifalarining azaliy qahramoni.
- O'zbek satirik shoiri, «Hapalak» she'ri muallifi.
- Asl ismi Boborahim bo'lgan o'zbek g'azalnavis shoiri.
- Atoqli o'zbek shoiri.
- Nasriy asar janri.
- Oybek qalamiga mansub qissa: «Bola ...».
- Kulgili voqealar haqidagi kichik hikoya.
- G'afur G'ulomning «Yodgor» qissasi qahramoni.
- To'rt misrali nazmiy asar.
- Nomaning yana bir atamasi.
- Fransuz yozuvchisi Aleksandr Dyuma qalamiga mansub «Uch mushketyor» sarguzasht romani qahramoni.
- O'lmas Umarbekov romani: «... va Zuhra».
- O'tmishda husnixat yozuvchi.
- Atoqli adib yozib qoldirgan birinchi o'zbek romanining bosh qahramonlaridan biri.
- Taniqli adib Sharof Rashidovning lirik qissasi: «... qo'shig'i».
- Atoqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniy yozib qoldirgan dramatik asar: «Advokat bo'lish ...?»
- O'zbek bolalar shoiri: ... Hikmat.
- Qadimgi yunon shoiri Gomerga mansub dostonlardan biri.
- Ingliz adibasi «So'na» romani muallifi.
- Amir Temur hikmatidari: «Adovat emas ... yengadi».
- Taniqli adib Shuhratning «Oltin zanglamas» romani qahramoni.
- XX asr o'zbek shoiri va tarixchisi.

Javoblardan aylanalardagi harflardan ibratl so'z ayon bo'ladi.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

2-aprel 2018

8

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHIR HAYATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Alisher SADULLAYEV,
Laziz TANGRIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOV,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMU
bosmaxonasida chop etildi.
Manzilimiz va bosmaxona
manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi - 67 000
Buyurtma - V 1363

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilindi,
mualliflarga qaytarildi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vagti - 18:00
Topshirish - 18:00
Tel./faks:
(99871) 244-63-08

Dam olish kunlari buvijonimni ko'rgani
bordik. Ular Toshkent viloyatining Yuqori
Chirchiq tumanida yashaydi.

YANGI KITOB DO'KONI

Bayram bahona diydorlashishga
yig'ilgan qarindoshlarimiz tufayli hovli
to'xonaga aylandi. Tog'am oshga
unnab yubordi. Biz qizlar hovli etagida
o'sib yotgan ismalolqlarni terib, ko'k
somsa yopdik. Bir zumda atrofn
tandirda qizarib pishayotgan ko'k
somsalarning isi tutib ketdi. Hamma
jamiljam bo'lib tushlik qilgach, jiyanim
Shohsanam tumanda yangi kitob do'konini
ochilganini aytib goldi. Kattalardan izn so'rab,
darhol manzil tomon shoshildik.

Kitob do'konini yosh-u qari bilan gavjum edi.
Hamma o'ziga ma'qul kitobni tanlash bilan ovora.
Jahon adabiyoti durdonlari, ertak kitoblar, o'zbek
yozuvchi va shoirlarining sara asarlari taxlangan
peshtaxtalarni aylanarkanmiz, kitoblarining
xilma-xilligini ko'rib, ko'zimiz quvonardi. Ayniqsa,
yaqinda bu yerda «Elektron kutubxonasi» va
kompyuter xonalari ham ochilishini eshitib, rosa
sevindik. Endi buvimlarnikiga borganda nafaqat
ularni ziyyarat qilaman, balki yangi kitoblardan ham
bahramand bo'laman.

Odina SAHOBIDDIN qizi

